

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
U.X.Kolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evaton	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
SIYOSAT	
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiев	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
Бурхониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни	297



УО'К: 130.2.7

JAMIYAT MA'NAVIY MUHITIDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В ДУХОВНОЙ СРЕДЕ ОБЩЕСТВА

THE ROLE OF CULTURE AND ART IN THE SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY

Ahrorova Shahlo O'rino boyevna

RMMM huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti, p.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Inson yaralibdi-ki, madaniyat, san'at, adabiyot uning ma'naviy qiyofasining tarkibiy qismi sifatida u bilan yonmay yon yashab, shakllanib, taraqqiy etib kelmoqda. Ushbu maqola madaniyat, san'at, san'at turlari, badiiy ijod, badiiy idrok to'g'risida, shuningdek, madaniyat va san'at sohasida ma'naviy tarbiyaning o'mni va ahamiyatini yoritish ko'zda tutilgan. Tahlil usulidan foydalanilgan. Natijada madaniyat va san'atning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati ochib beriladi. Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashirishda bu masalalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

Человек создан для того, чтобы культура, искусство и литература жили рядом с ним, формируясь и развиваясь как часть его духовного образа. Данная статья призвана осветить культуру, искусство, виды искусства, художественное творчество, художественное восприятие, а также роль и значение духовного образования в сфере культуры и искусства. Использован аналитический метод. В результате раскрывается природа культуры и искусства. Исследование этих вопросов имеет важное значение в стабилизации социально-духовной среды общества.

Abstract

Man was created for culture, art and literature to live next to him, forming and developing as part of his spiritual image. This article is intended to highlight culture, art, types of art, artistic creativity, artistic perception, as well as the role and significance of spiritual education in the field of culture and art. An analytical method was used. As a result, the nature of culture and art is revealed. The study of these issues is important in stabilizing the socio-spiritual environment of society.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, san'at asari, adabiyot, san'at turlari, janrlar, ma'naviyat, ma'naviy qiyofa, ma'naviy olam, ijod, badiiy ijod, badiiy idrok, iste'dod, estetik idrok, tarbiya, g'oya.

Ключевые слова: культура, искусство, художественное произведение, литература, виды искусства, жанры, духовность, духовный образ, духовный мир, творчество, художественное творчество, художественное восприятие, талант, эстетическое восприятие, образование, идея.

Key words: culture, art, work of art, literature, types of art, genres, spirituality, spiritual image, spiritual world, creativity, artistic creativity, artistic perception, talent, aesthetic perception, education, idea.

KIRISH

Madaniyat va san'at azaldan insonning hamrohi bo'lib kelgan, uning yashash tarzi, ko'nikmalari, milliy o'ziga xosligi bilan uyg'unlashgan. Insonlarning, millatlarning o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari madaniy aloqalarning ham uyg'unligini taqozo etadi. Bu aloqalar o'z navbatida madaniyatlarning chegara hatlab almashinuvni, shakllanishi, takomillashuvini keltirib chiqaradi. Rivojlanish va takomillashuv hamisha ijobji hodisa bo'lib kelgan, lekin uning ma'lum bir qobiqdan chiqib "ommaviy" tus olishi, transformatsiyalashuv jarayonida milliy-madaniy unsurlarning "yeb borilishi" o'ziga xos salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan mavzu dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi global mashuv davrida madaniyatning transformatsiyalashuv jarayoni yanada jadallahdi. Bu esa madaniyat va san'atning milliy va ma'naviy mohiyatini pasayishtirishdek jiddiy xatar ham tug'dirishi mumkinligini nazardan qochirmaslik lozim. Shu nuqtai-nazardan, madaniyatning ham, san'atning ham milliy xususiyatlarini o'rganish va shu orqali uning milliy-ma'naviy ahamiyatini anglash muhimlik va dolzarblik kasb etadi.

Madaniyat va san'at faqatgina ijtimoiy emas, balki u ma'naviy hodisa ham hisoblanadi. Bu ikkala vogelik aslida shaxs ma'naviy dunyosining mahsuli hisoblanadi, shu olamni shakllantirish hamda boyitishda ishtirot etadi. Ya'ni, yuqorida ta'kidlanganidek, madaniyat va san'at – inson yaralganidanoq, u bilan uyg'un tarzda rivojlangan va taraqqiy topib kelmoqda. Demak madaniyat

FALSAFA

ham, san'at ham ma'naviy olamga aloqadorligi bois, ularning namoyon bo'lishida shaxsning ma'naviy qiyofasi dolzarb mezon vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Madaniyat tushunchasi keng ma'noda kishilarning faoliyati va hayotiga oid ijod qilish, yaratish jarayonlarining hamma bosqich va turlarini qamrab olsa, tor ma'noda ularning ma'naviy hayot tarziga oidlik ma'nosida qo'llanilishi ma'lum. Bilamiz-ki, madaniyat — arabcha "madina" degan so'zdan olingan bo'lib, bu so'z o'troq yashaydigan shahardagi turmush tarzini ifodalaydigan bo'lsa, keyinchalik u hayotdagи moddiy va ma'naviy yetuklikni ham ifodalay boshlagan. O'rta asrning allomalari shahardagi hayotga yetuklikning shakli sifatida qaraganlar. Masalan, Forobiyning fikriga ko'ra,[2,190-191-b] "madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-baravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar". XIX-XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining namoyondalari madaniyat rivojining asosi sifatida yetakchi omil deb ma'rifatparvarlikni ko'radilar. [8,11-b; 4,175-b; 5,36-b.]

Yevropa mamlakatlarida madaniyatni insonning tabiatini tarbiyalovchi vosita sifatida ko'rishgan va ular buni ifodalashda lotincha cultura degan so'zdan foydalanishgan. Ruslarda ham madaniyat "kultura" so'zi bilan ifodalanadi. Qadim zamonda elliinlar ham madaniyat ifodasida tarbiyalilikni talqin qilishgan. Nemis faylasuflari esa madaniyatni insoniyat taraqqiyotining omilidir, deb bildilar. Shuningdek, madaniyatga tabiatning ustida qurilgan yana bir "tabiat", ya'ni, insonning ongu-shuuri hamda qo'li bilan vujudga kelgan yaratiqlar uning madaniy turmush tarzi ifodasida kiritilgan bo'lib, bu moddiy hamda ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Ya'ni, madaniyat inson faoliyatidagi jarayon, uning oqibatida vujudga kelgan moddiy va ma'naviy yaratiqlar qadriyatlarga aylanib, inson kamol topishida muhim hisoblangan ijtimoiy-ma'naviy hodisadir. [7] Umuman olganda, olimlarning madaniyat hodisasiga bergan ta'rif-tavsiflari xilma-xil, ayrim holatlarda esa ularda ma'lum bir zidlikni ko'rish mumkin. Bunday zidliklarning asosini tarixan kelib chiqishlik hamda milliy qadriyatlilik asosidagi yondashuv tashkil etadi. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizday, madaniyat sof ma'naviy hodisa sanalib, uning har qanday xalq hayotida namoyon bo'lishi o'ziga xos tarzda milliylik bilan yo'g'riladi. Amerikalik faylasuflar K.Klaxon va A.Kraberlar 1950 yilga kelib, "madaniyat" so'zining tafsifi 257tani tashkil qilganini ta'kidlaganlar. [3, 57-58 b.] Shu o'rinda millat tili ham madaniy va ma'naviy qadriyat ekanini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

San'at, qaysidir voqeliklarni timsollar hamda badiiy obraz yordamida ifodalash, ma'lum bir faoliyatda mahoratni namoyon qilish jarayoni, mahorat darajasi kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, san'at asarlari – bu, inson ong-u shuuri, tuyg'ulari hamda tafakkuri vositasida dunyoga kelgan badiiy yaratiqlardir. Boshqacha aytganimizda, san'at insonning mahorati, o'ziga xos iste'dodi asosidagi mehnatining hosilasidir. Badiiy ijod yuz berish jarayonida badiiy qadriyat hisoblanmish san'at asari vujudga keladi hamda ushbu yaratiq badiiy idrok yordamida iste'mol qilinadi. Shu nuqtayi nazardan qarasak, san'at aslida ma'naviy ishlab chiqarish hisoblanadi. San'at ham inson bilan birgalikda yashab va rivojlanib kelmoqda, san'atning ham, xuddi madaniyat singari, moddiy qiyofasi bo'lish-bo'imasligidan qat'iy nazar, ma'naviy mohiyati mavjud. San'at tarixiy rivojlanishning estetik mahsuli hisoblanib, voqeliklarning ko'p qiyofaliligi, inson hissiyoti va idrok xususiyatlarining xilma-xilligi tufayli bugungi kunda san'at har biri o'ziga xos betakror bo'lgan talaygina turlarga bo'linadi. Bu turlarga musiqa, raqs, qo'shiqchilik, adabiyot, tasviriy san'at, grafika, me'morchilik, haykaltaroshlik, sirk, kino, teatr san'atlari singarilar kiradi. Bugungi kunda yangi tur sifatida fotografiya ham san'at turlariga kirib keldi. Bularning barchasi o'z navbatida yana yo'nalishlar va janrlarga bo'linadi.

San'at asarlarining ma'naviy jihatlari inson estetik faoliyati samarasi sifatida namoyon bo'lsa, uning g'oyaviy va falsafiy jihatli ushbu ijodkorning qarashlari va tafakkuri hosilasi hisoblanadi. Shu bilan birga san'at davomli mehnatning samarasi hamdir. San'at ijtimoiy sohaning alohida yo'nalishi hisoblansa-da, u boshqa sohalar bilan ham aloqaga kirishadi, hamma sohalar uchun umumiylilik kasb etgan ma'naviy hayotda aks qiladi. Xuddi madaniyat kabi, san'atda ham milliy va shaxsiy xarakter namoyon bo'ladı. Bizga ma'lumki, har qanday shaxsiy qarash milliy qarashdan oziqlanadi va undan uzilib ketolmaydi. Shu ma'noda san'at qandaydir tarzda milliylik kasb etishini ko'rish mumkin. Bu milliylik esa o'ziga xos bo'lgan uslublarda bo'y ko'rsatadi. Masalan, agar raqs san'atini olsak, baletmeysterlarning milliy bazasidan kelib chiqib bir xil musiqaga ikki xil yo'nalishda raqs

sahnalashtirish mumkin. Yoki tasviriy san'atda bir xil borliq yohud vogelik rassomning milliy mohiyati natijasida ikki xil uslubda tasvir topishi mumkin. Uslublarning xilma-xilligiga albatta g'oyalar ham ta'sirini ko'rsatadi. Goho shu uslublar vorisiylikni kasb etgan holda, o'ziga xos maktab yaratishi mumkin. Har qanday san'atkor, u san'atning qaysi turida faoliyat yuritishidan qat'iy nazar yaratuvchi, ijodkor hisoblanadi. U dunyoni faqat uning o'ziga xos bo'lgan tuyg'u, tafakkur, sezgilar vositasida anglaydi hamda shunga mos ravishda obraz yaratadi. Ta'kidlash lozim-ki, bu obrazlarda ijodkor, san'atkorning ma'nnaviy qiyofasi badiiy ko'rinishda aks etadi. Bu esa har bitta ijodkorning san'at va ijoddagi o'z "imzo"si yaralishiga zamin hozirlaydi. Bundan kelib chiqadi-ki, madaniyat va san'atda ijodkorning ichki ma'nnaviy olami ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrimizni oydinlashtirish maqsadida ma'naviyat kategoriyasiga kengroq to'xtalishga to'g'ri keladi.

Ma'naviyat — insonlarning o'zaro munosabatlari, olgan ta'lim-tarbiyalari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va ichki olamlarida namoyon bo'lgan holda insonlarning xatti-harakatlari, munosabatlarini belgilaydigan tizimdir. [6, 4-b.] Har bir odam o'zini shaxs sifatida anglay boshlagach, umrining so'ngiga qadar ma'nnaviy qiyofasini shakllantirib boradi va rivojlantiradi. Demak ma'naviyat olamida shaxsning tafakkuri doirasidagi yuzaga kelgan xulosalari, barcha qobiliyatlar, maqsadlari aks etadi. Boshqacha aytganimizda, u o'zida botiniy dunyoni aks ettiradi. Ma'naviyat darajasini ifodalashda, odatda ma'nnaviy yetuklik, ma'nnaviy qashshoqlik, ma'nnaviy boylik, ma'nnaviy tubanlik kabi tushunchalar, iboralar qo'llaniladi. Insonni hamda jamiyatni kamolotga eltuvchi ma'nnaviy yetuklikdir. Ma'nnaviy yetuklik – bu, inson yaxshi fazilatlar egasi bo'lishi bilan birga, u har bir harakatini ezgulik tomon yo'naltira olishi, o'zgalarga yaxshilik istash bilan birga el va yurt uchun, ko'pchilik uchun fidoyilik qila olishi, barcha olgan bilimlarini ezgulik maqsadida yo'naltirishda namoyon bo'ladi.

Ma'nnaviy olam moddiyatga ham aylanishi mumkin. Bu o'sha insonning ma'naviyat dunyosidagi qadriyatlari uning faoliyat tarzida, o'zidan boshqalarga, yurt va millatiga, oila va jamiyatga bo'lgan munosabatida aks etadi. Elimizda xush fazilatlilikni insoniylik, deb sifatlaydilar. Demak, ma'nnaviy yetuklik ana shu insoniylik sifatlarining tizimli, yaxlit tarzda namoyon bo'lishidir, deb aytish ham mumkin.

Professor Q.Nazarov e'tirof etganidek, ma'naviyat insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go'zalligi, his-tuyg'ulari, kechinmalarini aks ettiradi. [6, 90-126-b.] Ma'naviyat insonlardagi yuqori darajada takomillashgan insonparvarlik fazilatlarining yig'indisi. Ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir.[6, 90-110-b.] Xulosa qilganda, birinchidan, ma'naviyat bu – insonning siyrati, ma'no-mag'zi. Shu ma'noda u inson hayotining mohiyati va umr mazmunini belgilab beradi. Ikkinchidan, ma'naviyat bu – insonning haqiqati. Inson dunyo vogeliklarida ishtirok etar ekan, uni anglay boshlaydi, tafakkur ila tahlil qiladi, ularga nisbatan his-tuyg'ularini namoyon etadi. Shu barobarida o'zi to'g'ri, deb topgan narsalardan o'z haqiqatini yaratadi. U mana shu haqiqatga asoslanib, mo'ljalini oladi, yo'lini belgilaydi, his-tuyg'ularini shu mo'ljal atrofida gavdalantiradi. Gap shundaki, bu haqiqati ijtimoiy haqiqat bilan uyg'unlashsa u komillik topadi. Uchinchidan, ma'naviyat bu – insonning ichki qadriyatları majmui. U vogeliklar ichida mavjudligini namoyish qilar ekan, ularga bo'lgan munosabatlari asosida ularning qadr darajasini belgilaydi va o'lchaydi. Shu o'Ichov asosida qaysidir vogeliklar, obyektlar, fazilatlar, hatto gohida ayrim illatlar ham qadriyatlashadi. Faqat u ushbu illatlarga illat, deb hisoblamaydi, bunga ma'lum bir asoslarini haqiqat qilib oladi. Ushbu qadriyatlar asosida inson o'z ma'nnaviy qiyofasini shakllantiradi.

XULOSA

Qisqasi, ma'nnaviy olamda inson hayotining mazmuni namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik, Vatanni sevish inson ma'naviyati darajasini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat takomil topgan jamiyatlarda iste'dod, qobiliyat egalari millatning yuzi, g'ururi, jamiyatning obro'e'tibori hisoblanishadi. Ma'nnaviy yetuk jamiyatlarda sog'lom fikr, aql, adolat va yaxshi xulq ustuvor bo'ladi. Bunday jamiyatlarda xalqning ertangi kuniga ishonchi yuksak bo'ladi. Insonga nomunosib tarzdagi turli illatlar barham topadi.

"Mening nazarimda, — deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, — insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi". [1, 267-b.]

Alohiba ta'kidlash kerak-ki, ma'lum bir san'at asarini yaratayotgan ijodkorning vogelikni estetik anglash qobiliyati, iste'dodi uning ma'nnaviy qiyofasi ichida yotadi. Shu ma'noda ma'naviyat rivojining qator omillari orasida asosiyalaridan biri – bu madaniyat hamda san'at hisoblanadi. Zero

FALSAFA

madaniyat, san'at, adabiyot insonda mustaqil fikrning shakllanishiga ko'mak berishi bilan birga, uning ruhiyatini takomillashtiradi, tarbiyasiga ta'sirini ko'rsatadi, g'oyaviy qurollantirishda yordam beradi. San'at asarlarida ijodkorning iqtidori bilan birga uning insoniy xislatlari, qarashlari, hayotiy g'oyasi ham muhim o'rinn tutadi. Uning o'ziga xos g'oyaviy "haqiqati", ichki qadriyatlar yaratilgan asarda biz yuqorida ta'kidlab o'tgan "imzo"sida aks etadi. Demak, ma'naviyat tarbiyasi madaniyat va san'atda yaratiqlarning tarbiyaviy va g'oyaviy xususiyatlarini qurollantirish bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqadi-ki:

- birinchidan, har bir jamiyat o'z ijodkorlarining ma'naviy qiyofasini yuksak darajasida shakllantirishga asoslangan chora-tadbirlash belgilashi, shart-sharoitlar yaratishi lozim bo'ladi;
- ikkinchidan, madaniyatlar transformatsiyalashuvi jarayonida milliy-madaniy unsurlarni saqlab qolish uchun milliy madaniyat asoslarini chuqr o'rganish, tahlil qilish va uni odamlar shuurgiga singdirish choralarini ko'rish lozim;
- uchinchidan, madaniyat va san'atda milliy unsurlarning asos sifatida namoyon bo'lishi – millatning o'zligi va mavjudligidan dalolat ekanligini hisobga olgan holda, ushbu soha xodimlariga ushbu mavzular fan sifatida o'qitilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021
2. Abu Nosir Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashiyoti, 1993.
3. Kroeber A, Kluchonu S. Culture // Anaeitical Review of Concepts and Debinitions. Cambridge: Mass, 1952.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2006.
5. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003.
6. Nazarov Q.N. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). — Toshkent: Akademiya, 2011.
7. Cho'lon. She'rlar. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'z.Milliy kutubxonasi, 2016.